

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
O‘zbekistonda avtomobil yo‘llaridagi ko‘priklarni inshootlarning loyihalash va hisoblash usullarini Yevrokod (EN) bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: – O‘zbekiston Respublikasida ko‘priklarni inshootlarni loyihalash va hisoblashda qo‘llanilayotgan milliy me‘yoriy-texnik hujjatlar hamda hisoblash usullarining Yevrokodlar (EN) talablari bilan ilmiy-taqqoslama tahlili amalga oshiriladi. – O‘zbekistonning seysmik, iqlimiy va geologik sharoitlarini hisobga olgan holda ko‘priklarni inshootlarni hisoblash uchun Yevrokod talablarini moslashtirishga doir ilmiy asoslangan yondashuvlar ishlab chiqiladi. – yuklamalar va ta’sirlar (doimiy, vaqtinchalik, seysmik va ekspluatatsion) ni baholashda qo‘llaniladigan hisoblash modellari va xavfsizlik koeffitsientlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantiriladi. – milliy normativ hujjatlarni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishga oid ilmiy-uslubiy asoslar yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.